

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI


XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

**O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-
PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI**



**Inklyuziv sinfdagi maxsus o‘qituvchining alohida
ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash
metodikasi**

nomli metodik qo‘llanma



Toshkent 2022

UO‘K 347.2
KBK 78.202.4

Xalq ta‘limi vazirligining O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Ilmiy metodik Kengashining 2022-yil 28-iyundagi 2-sonli yig‘ilish qarori bilan ma‘qullangan.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori **L.R.Gaynutdinov**ning umumiy tahriri ostida tayyorlandi.

Tuzuvchilar:

- | | |
|--------------------|---|
| S.Mo‘minov | O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta‘lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti. |
| Sh.Axmedova | O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta‘lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti. |
| G.Alimova | O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta‘lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti. |

Taqrizchilar:

- | | |
|---------------------|---|
| F.Qodirova | p.f.d., professor. Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrasini mudiri. |
| Q.Matxoliqov | t.f.n., Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Jahon tarixi kafedrasini katta o‘qituvchisi. |
| D.Hamroyeva | Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz shahri 13-sonli umumta‘lim maktabi o‘qituvchi-logopedi, defektolog. |

Ushbu “Inklyuziv sinfdagi maxsus o‘qituvchining alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash metodikasi” nomli metodik qo‘llanma umumta‘lim maktablaridagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, maxsus o‘qituvchilar, maktab psixologlari, umumta‘lim maktabi qoshidagi logopedik shoxobcha logopedlari maxsus pedagogika yo‘nalishi talabalari (Tyutorlar) hamda ota-onalar uchun mo‘ljallangan.

ISBN 978-9943-9245-8-3

© Tashxis markazi, 2022.

*Inklyuziv ta'limni tashkil etish
insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar,
bag'rikenglik, oshkoralik tamoyillariga
asosan amalga oshiriladi.*

Kirish

Davlatimiz tomonidan bugungi kunda nogironligi bo'lgan shaxslar va alohida ta'lim ehtiyojli bolalarni ijtimoiy hayotga yo'naltirish, ular uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ta'lim tarbiyasiga alohida e'tibor kuchaytirilgan. Buni biz Prezidentimiz hamda davlatimiz tomonidan chiqarilayotgan farmon hamda qarorlarda ko'rishimiz mumkin.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni o'z sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda umumta'lim maktablarida bilim olishi, do'stona muhitni, teng huquqligining kafolatlanishi, turli xil zo'ravonlik hamda kamsitishlikka yo'l qo'ymaslik, shu bilan birga bir sinfda bir xil sharoitda ta'lim-tarbiya olishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarorining 1-ilovasi "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida" gi hujjatlarga muvofiq umumta'lim muassasalarida tashkil etiladigan inklyuziv hamda boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda faoliyat olib boradigan maxsus o'qituvchi o'quvchilarga individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga yordam ko'rsatish, o'quvchilar bilan individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirish, nuqsonlarni tuzatish (korreksiya) va ular bilan bog'liq bola rivojlanishining o'ziga xosliklarini bartaraf etish ishlarida, barcha darslarda, sinfdan tashqari va boshqa tadbirlarni amalga oshirishi ta'kidlab o'tilgan.

Ushbu metodik tavsiya aynan hujjatda ko'rsatilgan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga inklyuziv sinfga boshlang'ich ta'lim sinf o'qituvchisi bilan birgalikda maxsus o'qituvchining ish faoliyati haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Maxsus o'qituvchi defektologik bilimiga ega bo'lib, inklyuziv sinfdagi boshlang'ich sinf o'qituvchisi berayotgan bilimlarni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga individual yondashgan holda atroflicha o'zgartirishiga yordam beradi. Maxsus o'qituvchining asosiy vazifasi dars mazmunini, topshiriqlarni berishda:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar) o'qituvchiga alohida,

- ko'rishda nuqsoni bo'lgan (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar) o'qituvchiga alohida,

- hulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan o'qituvchiga alohida,

- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan o'qituvchilar uchun tushunarli va yetarli darajada yetkazib berish talab qilinadi.

Somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar), nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojlanishdagi sustlik, duduqlanish), tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi - pakanalik), aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar bundan mustasno. Ularning aqliy salohiyatida hech qanday muammosi bo'lmaganligi uchun faqat korreksion mashg'ulotlar olib boriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir mavzuni tushuntirishda alohida

ehtiyojli o'quvchi barcha sinfdoshlari bilan teng ravishda ishtirok eta olishini ta'minlash ko'zda tutiladi. Chunki har bir fandagi mavzu bo'yicha o'quvchilarda ma'lum tushuncha va tasavvurga ega bo'lishi tabiiy, ya'ni har bir fan bo'yicha dastur va darsliklar birinchi sinf o'quvchisining yoshi va imkoniyatiga mos ravishda tuziladi. Shundan kelib chiqqan holda maxsus o'qituvchi oldiga alohida ehtiyojli bolani har bir fan bo'yicha o'tiladigan mavzuga mos bo'lgan dastlabki tushunchalarni berib borilishi ko'zda tutiladi. Bundan tashqari sinf o'qituvchisi va maxsus o'qituvchi, maktab psixolog, logopedi oila bilan hamkorlikda ish olib borishi va ota-onalarni uyda tegishli vazifalarni bajarish, o'rgangan bilimlarini mustahkamlab borish talabini qo'yishlari zarur.



Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari

Inklyuziv so'zi - (*inklyuziya* – inglizcha [inclusion] - uyg'unlashish) degan ma'noni bildiradi. Hamkorlikdagi ta'lim tizimi bo'lib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan.

Inklyuziv ta'limning maqsadi: alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;
- ta'lim muassasasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish;
- ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;
- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish;
- ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;
- jamiyatda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchi va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish kabilardir.

O'quvchi qanday imkoniyatga ega bo'lishidan qat'iy nazar har doim kattalar yordamiga muhtoj bo'ladi. Uni alohidalash yoki alohida nom bilan "Anomal bolalar", (ko'r bolalar), (kar bolalar) va hakozi tushunchalar bilan ajratib ko'rsatish insonparvarlik nuqtayi nazariga to'g'ri kelmaydi. Ushbu tushunchalar alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar va o'smirlarning huquqlarini kamsitish bilan bir qatorda ota-onalarga ham salbiy ta'sir etadi.

Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

- jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

- ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

- barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

- o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Inklyuziv ta'lim - alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda umumta'lim muassasalarida barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim umumta'lim maktablarida sinf sifatida tashkil etiladi, sog'lom o'quvchilar bilan bir qatorda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar birga bir sinfda ta'lim-tarbiya oladilar va **"Inklyuziv ta'lim sinfi"** deb ataladi.

Umumta'lim maktabida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bir xil nuqsonli 8-12 nafar o'quvchi alohida bir sinfda ta'lim-tarbiya oladi va ushbu sinf **"Boshlang'ich tayanch korreksion sinfi"** deyiladi.

Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- O‘zlariga o‘xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;

- Tengdolariga g‘amxo‘rlik hissi uyg‘onadi;

- Ularni qo‘llab-quvvatlash, yordam berishga intilish–insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;

- O‘quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o‘zaro hurmat tarbiyalanadi;

- Yoramga muhtoj insonlarga e‘tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar.

Inklyuziv ta‘lim alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga nima beradi?

- O‘z imkoniyatini o‘zi uchun kashf etish imkonini beradi;

- Mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;

- Dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

- O‘qishga bo‘lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;

- O‘zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;

- Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;

- Yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo‘qoladi.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinadigan va qabul qilinmaydigan bolalar haqida umumiy ma'lumot.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar hududiy xalq ta'limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi va yo'llanmasi orqali, otalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);
- ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);
- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);
- nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);
- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomieliit, miopatiya, osteomieliit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi-pakanalik);
- aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar;
- aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji);
- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;
- hulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;

- intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmagan paytda).

Qabul qilinmaydigan bolalar:

- aqli o'ta zaif bolalar (imbitsil, idiotiya darajasidagi oligofreniya);
- xulq-atvorida og'ir buzilishlar, hissiy-irodaviy sohasida (organik) nuqsonlari bo'lgan bolalar;
- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan, mustaqil ravishda harakatlana olmaydigan va o'z-o'ziga xizmat ko'rsata olmaydigan bolalar;
- ko'r-kar-soqov bolalar;
- tez-tez takrorlanadigan epileptik tutqanoqdan aziyat chekadigan (epileptik demensiya, kunduzgi va tungi vaqtlarda tutqanoq'i tez-tez takrorlanadigan) bolalar;
- markaziy asab tizimiga shikast yetganligi tufayli siydik va najasini ushlab turolmaydigan bolalar.

Inklyuziv ta'limda tyutorning o'rni va ahamiyati

Inklyuziv ta'lim hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, u barcha maktab jamoasini, maxsus o'qituvchini, psixologlarni, keng jamoatchilik hamda tyutorlarni qamrab oladi. Ularning orqasida hozirgi kunda yangi lug'at so'zi hamda yo'nalish sifatida tyutor jumlasini kirib kelmoqda. Avvalambor, "tyutor" to'g'ri ma'noda ustoz, murabbiy, instruktor-yo'l ko'rsatuvchi ma'nolarida qo'llaniladi. Tyutor birinchi navbatda, ma'lum bir sohaning mutaxassisi bo'lib, uning asosiy vazifasi talabaga muayyan bilim va ko'nikmalar berishdan iboratdir. Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) yaqindan ko'maklashadi. Inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalariga tyutor (yordamchi pedagog xodim) sifatida tegishli malakaga ega volontyorlar va oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilinadi. Talabalarni inklyuziv ta'lim sinflari joriy qilingan maktablarga jalb etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi. Talabaning umumta'lim maktablaridagi pedagogik amaliyot davrida amaliyotchi rahbar sifatida umumta'lim maktabining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tayinlanadi. Talabani amaliyotni tugatganlik haqidagi ma'lumotnoma umumta'lim maktabi rahbari tomonidan beriladi. Tyutor:

- ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan muammolar va qiyinchiliklarni yengishga ko'maklashadi;
- ta'lim jarayonining individuallashtirish (individual ta'lim dasturlarini tuzish va sh.k.) uchun sharoitlar yaratadi;
- o'quvchilarning o'quv dasturlarini davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq darajada o'zlashtirishiga ko'maklashadi, bolaning o'quv yuklamasi va imkoniyatlarini tahlil qiladi, tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar beradi;

- ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lim oluvchilarning ta'limiy qiziqishlarini aniqlash, shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan hamkorlikni o'rnatadi.

Tyutor boshlang'ich sinf o'qituvchisi hamda maxsus o'qituvchiga bevosita yordam beradi. Inklyuziv sinf o'quvchisi dars hamda mashg'ulot davomida zerikib yoki toliqib qolsa bolani aylantirib keladi. Korreksion mashg'ulotni tashkil qilishda ham ishtirok etadi.

Inklyuziv ta'limda eshitishda muammosi bo'lgan bolalarga yondashish usullari:

Inklyuziv sinf o'quvchilaridan eshitishda muammolari bo'lgan o'quvchi ikki toifaga bo'linadi:

- birinchi toifasi koxlear implant qo'yilgan;
- ikkinchi toifalilar esa eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar.

Eshitish apparatini taqib eshitish tajribasi va elementar talaffuz hamda og'zaki so'zlashish tajribasi mavjud. Ba'zilarida nutqi 30-40% gacha shakllangan holatda bo'ladi. Dastlab o'quvchilarda eshitish va nutq tajribasi minimal darajada bo'ladi. Darsdan keyin eshitish trinojyori orqali mashg'ulotlar olib borilganda, dastlabki yarim yillikdan keyin bu o'quvchilarda nutqni egallashi jadallashadi. Bunda albatta oilaning o'rni juda katta bo'lib uyda bola doimiy nutqiy muhitda bo'lib turishi, darsda o'tilganlarni mustahkamlab borishi, eshitish qobiliyatini rivojlantirish mashqlarini bajarishi talab qilinadi.

Korreksiyalovchi mashg'ulot (Eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion mashg'ulotlar misolida) har kuni 20 minutdan maxsus pedagog tomonidan olib boriladi va ikki qismdan iborat bo'ladi. Korreksiyalovchi mashg'ulot surdopedagog tomonidan olib boriladi. Mashg'ulotning birinchi qismi eshitishga o'rgatish hamda eshitish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Ikkinchi qismi talaffuz va og'zaki so'zlashuv nutqni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Bunda uy vazifasiga berilgan nutq

materiali, keyingi dars uchun yangi mavzu materialining hammasi eshitib qabul qilish, taqlid qilib aytish yo‘li bilan olib boriladi. Maxsus o‘qituvchi har kuni o‘tilgan mavzuni mustahkamlaydi, uy vazifasini bajartiradi, keyingi darsda takrorlash va mustahkamlash bo‘yicha savol va topshiriqlarni bola bilan tayyorlaydi. Keyin barcha fanlar bo‘yicha keyingi darsda o‘tiladigan mavzuni bir kun oldin o‘quvchi bilan yakka tartibda ishlab chiqadi va keyingi darsda faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

Agar inklyuziv sinfga eshitishida muammosi bo‘lgan eshitish qobiliyatining yo‘qotilishi 60 Db gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bola hamda koxlear implantatsiyasi bo‘lsa uni nutqini tekshirishda talaffuz mashg‘ulotlarining rejasi o‘tkazilgan maxsus tekshirish natijalari asosida tuziladi. Tekshirish jarayoni esa, har bir o‘quvchining psixofizik va nutqiy eshituv holatining o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Nutqiy nafasini esa nafas mashqlari orqali to‘g‘rilanadi. Maxsus o‘qituvchi o‘quvchilarga nutqiy nafasdan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatadi, davomiy (uzun) nafasni bosqichma-bosqich, asta-sekin sifat jihatdan o‘sish asosida shakllantiradi.

Ovoz ustida esa:

- nutqiy materialni me‘yordagi balandlik, kuch va tembrdagi ovoz bilan o‘qituvchi yordamida yoki mustaqil talaffuz qilishga;

- eshitish orqali ovoz o‘zgarishini farqlash va ovoz kuchiga moslashgan holda talaffuz orqali takrorlash: **sekin-asta kuchayish:** “*past-balandroq-baland*”, **ovoz kuchsizlanishi:** “*baland-pastroq-past*”;

- ovozning tabiiy diapazonini farqlash: odatiy ohang, o‘rta darajadan ko‘tarish, baland va o‘rta darajadagi ovozdan pasaytirish;

- ovoz kuchini o‘zgartirish: me‘yoriy (odatiy)-baland-past;

- shivirlash orqali nutqiy materialni talaffuz qilish (o‘qituvchining talabi asosida, suhbatdosh o‘rtasidagi masofa, xonaning kengligi, vaziyat taqozosi bilan sokinlikka rioya qilish).

Nutqning ritmik-ohangini his etish va farqlashga o‘rgatishda gap bo‘laklari bo‘yicha nutqiy birliklarni farqlash va talaffuz qilish: urg‘uni his qilish, farqlash,

xabar, so‘roq, xis-hayajonni yetkazish (o‘qituvchi yordamida yoki mustaqil)dan foydalaniladi.

Talaffuzni shakllantirish mashg‘ulotlari har bir o‘quvchi uchun alohida nutqiy tekshirish natijalari asosida tuziladi. 1-sinflarda asosiy fonemalar asosida “Tovush qo‘yish” mavzulari rejalashtiriladi. 2-sinfdan 2- konsentr tovushlari qo‘yiladi. 1-konsentr ustida yana “Qo‘yish” ishlari davom etadi. 3-sinfdan boshlab, o‘quvchilarning nutqiy rivojlanish holatiga ko‘ra mavzular rejalashtiriladi. Maqsadda: “Tovushlar talaffuzi kamchiliklarini” degan fikrdan so‘ng **“tuzatish”**, **“diffrensiyalash”**, **“mustahkamlash”** kabi fe‘llardan foydalaniladi.

Eshitish idrokini rivojlantirish uchun: Eshitish orqali matnni qabul qilishga o‘qitish yil davomida olib boriladi. Ushbu jarayon quydagi bosqichli ishlarni o‘z ichiga oladi:

1-mashg‘ulot: Matnni butunligicha qabul qilish va nimalarni idrok eta olgan bo‘lsa, shularni aytib berish; matndagi jummalarni eshitish orqali tanish. Bu mashg‘ulotning raqamlanishi o‘quv yili yoki chorakka nisbatan emas, balki reja asosida boshlangan yangi mavzuning 1- va keyingi ishlaridir. Ya‘ni har bir mavzuni o‘tishda rioya etiladigan ish bosqichlaridir.

Ma‘lumki, aksariyat hollarda amaliyotda mavzuning boshlanishida dastlab so‘zlar, so‘z birikmalari va matnni eshitib farqlashga taqdim etish tajribalari kuzatilmoqda. Metodikada: eshitishga berilayotgan matnni 1-mashg‘ulotda yaxlit tarzda eshitishga, eshitib-ko‘rishga berish lozim. O‘quvchi nimani tushungan bo‘lsa, takrorlashi so‘raladi. **2-mashg‘ulot:** gap, so‘z birikmasi va so‘zlarni turli kombinatsiyalarda eshitishga berilganda **“tanish”**ga o‘rgatish. Bunda kartochkalar va sochma matnlardan foydalaniladi. **3-mashg‘ulot:** o‘quvchilar matn mazmunini oldingi mashg‘ulotlarda o‘zlashtirganliklaridan kelib chiqib, ularning matnni qanchalik tushunganliklari savol-javob va topshiriqlar yordamida aniqlanadi. Bunda o‘quvchi nafaqat o‘qituvchi bergan savollarga javob beradi, balki eshitgan gapiga savol ham berishi so‘raladi. So‘ngra matnni butun qabul qilish va mustaqil so‘zlab berish ustida ishlanadi.

Eshitish mashgʻulotlarida muhim ish turi bu dialog ustida ishlash va tashkil qilishdir:

1-variant: Oʻqituvchi oʻzi turli oʻyinlar yoki figurachalar bilan dialogni namoyish etadi. Oʻquvchi dialogni eshitishga 2 marotaba qabul qiladi, har birida nima tushunganini takrorlaydi.

2-variant: Oʻquvchi oʻzi sochma matndan dialog tuzadi. Tayyorlov, 1-sinflar uchun eshitish mashgʻulotlari mavzulari va mashgʻulot raqamlari hamda ularga ajratilgan haftalik soatlar quyidagi jadvalda berildi.

Izoh: 1-sinf uchun berilgan mavzular boʻyicha matnlar oʻqituvchilar tomonidan hamda mos sinf “Ona tili va oʻqish savodxonligi”, “Tabiiy fan” darsliklardan olingan holda tayyorlanishi tavsiya etiladi. Mavzular boʻyicha matnlar oʻquvchilarning imkoniyatlariga koʻra qismlarga ajratilgan holda eshitishga taqdim etiladi. Umumiy boʻlim mavzusi 1 ta boʻlib, hafta uchun matn mavzusi alohida berilgan boʻlsa-da, biroq ular umumiy 1 ta matnning qismlaridir. Boʻlim mavzusi boʻyicha tekshirish savollari hamda dialog tuzilishi har bir oʻquv uchun mos tarzda beriladi. Kartochkalardan foydalanishga ustuvorlik beriladi. Demak, umumiy matnning yaxlit va gaplar (soʻzlar, soʻz birikmalari) kabi birliklarda sochma tarzda tayyorlanishiga oʻqituvchilar masʼuldirlar.

Eshitishga beriladigan soʻzlar 4 ta turkumda tizimlashtirilgan lugʻat asosida tanlab olinadi. 2-sinfdan boshlab, oʻquvchining talaffuzidagi kamchiliklari bilan bogʻliq ravishda 4 ta turkumdagi soʻzlar mos tanlanadi. Yaʼni agar oʻquvchida “K” tovushi talaffuzida kamchiliklar kuzatilsa, shu tovush bor soʻzlar lugʻatdan tanlab olinadi. Bunda soʻz boshida, oʻrtasida, oxirida, yonma-yon va boshqa pozitsiyalarda kelishi hamda bir, ikki boʻgʻinli, undan koʻp boʻgʻinli soʻzlar esa, oʻquvchining imkoniyatidan kelib chiqib tanlashiga eʼtibor qaratiladi.

Inklyuziv taʼlimda maxsus oʻqituvchisi - zamonaviy oʻqituvchi qiyofasida.

Hozirgi kunda inovatsion bilim, malaka hamda koʻnikmalar bilan qurollangan zamonaviy inklyuziv taʼlimga jalb etilgan oʻqituvchi xuddi ommaviy

ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar qatori, tashqi ko'rinish madaniyatiga e'tibor bilan qarashi va o'zida zamon talabi darajasidagi tashqi qiyofani odat qilishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi o'quvchilarga, va ijtimoiy hayotda har qanday sohada faoliyat olib borayotgan insonlarga o'rnak bo'lishi zamon talabi deb hisoblanadi. O'qituvchining tashqi qiyofasi, ya'ni kiyinish uslubi ko'pincha uning ichki dunyosi, madaniyatini aks ettiradi, ya'ni toza, ozoda, qulay, ko'zga tashlanmaydigan zamonaviy o'qituvchi qiyofasi, madaniyatini o'zida aks ettirgan bo'lishi o'quvchilar uchun ibrat bo'lib qoladi. O'qituvchining butun qiyofasi bolalarni o'quv jarayonidan chalg'itmasligi–pedagog oldiga qo'yilgan asosiy talablar sirasiga kiradi.

O'qituvchining nutqi hamma vaqt o'zbek adabiy tilini o'zida aks ettiruvchi, zamonaviy texnika, texnologiya, xalqaro qabul qilingan terminologiyalardan to'g'ri va o'rinli ravishda qo'llashi, bu hozirgi kun va zamon talabi darajasida bo'lishi lozim. Agar o'tiladigan dars mashg'uloti mavzusi o'qish, hikoya, roman yoki doston bo'lsa, u obrazga kirib, yorqin, ya'ni rolga kirib, bolaning qalbiga kirib boradigan darajada qiziqтира olishi talab etiladi. Agar mashg'ulot mavzusi og'zaki bayon etish, tushuntirishdan iborat bo'lsa, nutq tekis, ravon, bir maromda va osoyishta bo'lishi maqsadga muvofiq. Butun jarayonda o'qituvchi o'z nutqining grammatik va leksik savodxonligiga e'tibor bergan holda sustkashlikka yo'l qo'ymasdan, kerakli o'rinda obrazli qilib, o'quvchilar havas bilan taqlid qiladigan darajada to'g'ri, til ko'nikmalariga kuchli e'tibor qaratilishi lozim. Shu o'rinda inklyuziv ta'lim jarayonida alohida ehtiyojli o'quvchilarning nutqni to'g'ri va savodli egallashi uchun aynan o'qituvchiga taqlid qilish orqali amalga oshirilishi hisobga olinishi, birinchi o'rinda turishi lozim.

Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi maksimal darajada xushmuomalalik va sabr-toqatni namoyon qilishi, qo'pollik va hurmatsizlikka mutlaqo yo'l qo'ymasligi talab qilinadi. O'quvchi bilan muloqot do'stona ruhda, optimistik kayfiyatda bo'lishi talab etiladi.

O'qituvchining bolalarga berayotgan har qanday ma'lumotida insonparvarlik, samimiylik aks etib turishi, inklyuziv ta'limda faoliyat olib

borayotgan bunday o'qituvchi bilan bir marta muloqotga kirishgan shaxs (ota, ona, bola) da u bilan yana suhbatlashish, muammolari bilan dardlashish istagi paydo bo'ladigan bo'lsin. Shunda ko'zlangan maqsadga tez va samarali erishish mumkin.

Inklyuziv ta'limda faoliyat olib boradigan o'qituvchi to'g'ridan-to'g'ri muloqot qobiliyati, gnostik ko'nikma, didaktik mahorat, o'yin qobiliyati, tashkiliy ko'nikmalar, kommunikativ-rejissyorlik, prognostik va aks ettirish qobiliyatlari hamda ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Undan tashqari doimiy ravishda motivatsion ko'nikmalarni ham rivojlantirib borishi, ya'ni o'quv jarayonida bolalar nima uchun va nima o'rganayotganliklarini va bu qanday yordam berishi mumkinligini anglashi, ularning istak va xohishlarini aniqlay olishi lozim.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan inklyuziv ta'lim o'qituvchisini tayyorlash jarayonida inklyuziv ta'limga o'tkazilishi va taqsimlanishi uchta asosiy tizimidan iborat bo'lishi kerak:

- ta'lim mazmuni – bu tizimda zarur kasbiy bilimlar aks etadi. O'qituvchi o'zining mutaxassisligini egasi va puxta bilim sohibi bo'lishi talab qilinadi;

- bo'lajak inklyuziv sinf o'qituvchisining kasbiy mahorat tizimini mukammal darajada shakllantirish tushiniladi;

- hozirgi zamon talabidan kelib chiqib dars jarayonlarini kasbga yo'naltiruvchi ruhda hayot va amaliyotga bog'lagan tarzda tizimli qilib olib borish nazarda tutiladi.

Inklyuziv ta'lim o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi.

Inklyuziv ta'lim o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi uchun zarur ko'nikmalar:

- inklyuziv ta'lim nima ekanligini tushunish, uning an'anaviy ta'lim shaklidan farqi nimada ekanligi;
- inklyuziv ta'lim muhitida bolalarning psixologik holati, yoshi va shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- sog'lom va nogironligi mavjud bo'lgan bolalarni birgalikda o'qitish uchun o'quv jarayonini psixologik, pedagogik, didaktik loyihalash usullarini bilishi;
- ta'lim muhitining barcha sub'ektlari (har bir bolalar bilan individual va guruhda ishlash, ota-onalar, hamkasblar, mutaxassislar, menejment vakillari bilan) o'rtasida turli xil pedagogik hamkorlik usullarini amalga oshirish qobiliyatini mavjud bo'lishi;
- inklyuziv ta'lim o'qituvchisining kasbiy faoliyat yo'nalishlari;
- oldini olish;
- tashxis qo'yish va maslahat berish;
- pedagogik ta'lim berish;
- psixologik va psixoterapevtik yordamda ishtirok etish;
- ta'lim va ijtimoiy-pedagogik faoliyatda faol harakat qilish;
- ta'limni tashkil etish va boshqarish;
- o'qitish faoliyati;

Inklyuziv ta'limda faoliyat olib boradigan maxsus o'qituvchining (tiflopedagog) faoliyati

Biz rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan insonparvar o'qituvchining eng muhim kasbiy ahamiyatli xususiyatlari qanday bo'lishi kerak degan savolga quyidagicha javob beramiz:

Rahmdil insoniy munosabatlar, bolalar uchun foydali bo'lish istagi, o'zini o'zi qadrlash, hamdardlik, kuchli mas'uliyat, sabr-toqat, bag'rikenglik, stressli vaziyatlarga nisbatan bag'rikenglik, rivojlanishida muammosi bo'lgan bolaning shaxsiga hurmat hissini o'zida jamlash kabilardir.

Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan umumta'lim maktablarida **tiflopedagog o'qituvchilar shug'ullanadi**. Tiflopedagog o'qituvchisi inklyuziv ta'lim joriy qilingan tashkilotlarda faoliyat yuritishi uchun maxsus (korreksion xonalar, ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi uchun texnik vositalar) sharoitlar yaratilgan bo'lishi va ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarning ta'limi bilan faqatgina tiflopedagog o'qituvchi shug'ullanishi ko'zda tutilgan. **Tiflopedagog o'qituvchining eng asosiy vazifalaridan biri axloqiy ta'limdir.** 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar o'z tanalarining anatomik xususiyatlarini ota-onalari, tengdoshlari va aka-ukalari bilan bir necha bor taqqoslab ko'radilar. Odatda, ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar axloqiy (jinsiy) tushunchalar bo'yicha hech qanday ma'lumot olishmagan va bu bolalar ommaviy maktabga kelganda, o'zlarining tengdoshlaridan orqada qolishgan bo'ladi. Har qanday bolaning, ayniqsa, ko'zi ojiz bolaning jinsiy maqsadli ta'limini boshlash hech qachon zarar qilmaydi. Jinsiy tarbiyani o'rgatish murakkab ko'nikmalar va tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Tiflopedagog o'qituvchining vazifalari:

1. Ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni har tomonla rivojlantirish; jumladan: pedagogik va psixologik jihatdan o'rganish, nuqsonlarning turlarini aniqlashtirish, jismoniy va ruhiy jihatdan rivojlantirish;
2. Ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilar ta'lim-tarbiyasining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarini qayta ishlash;
3. Bola shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirish uchun barcha maxsus mo'ljallangan ishlarni amalga oshirish.
4. O'quvchilarni mehnatga va kasb-hunarga yo'naltirilgan imkoniyatlarni yaratish.
5. Maxsus o'quv rejalar, dasturlar va darsliklarni tuzish.
6. Inklyuziv ta'lim joriy qilingan maktablarni rivojlantirishni yo'lga qo'yish.

Davolash va tiklash ishlari faqatgina okulist rahbarligida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi hamda maxsus o'qituvchi ham shifokor tavsiyalarini o'z vaqtida bajarishga yordam beradilar. Ko'zoynak va boshqa optik ko'ruvchi korrektsiyalovchi vositalarni tavsiya qilish davolash ishining asosi hisoblanadi. Pedagog va tarbiyachilar bolalarni ko'zoynaklardan shifokor tavsiya qilganidek to'g'ri foydalanishlarini nazorat qiladi. Ko'zoynakni opravasini (qolipi) to'g'ri tanlash muhim rol o'ynaydi. U yuz hajmini qorachiq-lari orasidagi masofaga mos tushishi shart, quloqlarni, burunlarni qismasligi lozim.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarni mehnatga va mustaqil hayotga tayyorlashda maxsus mashg'ulotlarning o'рни katta. Misol uchun: davolovchi jismoniy tarbiya, fazoda mo'ljalga olish kabilar.

Davolovchi jismoniy tarbiya mashqlari orqali turli kasalliklarni amaliyot davomida davolash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va jismoniy tarbiya

madaniyatiga ham qat'iy amal qilishimiz zarur. Fazoda mo'ljal olish ko'rishida muammosi bo'lgan o'quvchilarning muhim ehtiyoji hisoblanadi. Mo'ljal olishga o'rgatish bolalarni bog'cha yoki maktab atrofida erkin mo'ljal olishga o'rgatadi. Bu mashg'ulotlarni qancha erta boshlansa shuncha yaxshi natija beradi.

Asosiy vazifa - Ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalarning ko'p qirrali rivojlanishi uchun sharoit yaratish va ikkilamchi (ya'ni, asosiy zaiflik tufayli) rivojlanish nuqsonlarini yengib o'tishi uchun ko'maklashishdir.

Tiflopedagog o'qituvchisi tevarak-atrofdagi dunyo haqidagi g'oyalarni shakllantirish va boyitishda, mavjud bo'lgan analizatorlarni (qoldiq ko'rish, shuningdek eshitish, taktil, hid bilish, mushak-artikulyar tuyg'ular) safarbar qilishda faol ishtirok etadi hamda ko'zi ojiz yoki zaif ko'ruvchi bolalarning jismoniy rivojlanishidagi o'ziga xos og'ishlarni (gipodinamiya, obsesif harakatlar, noto'g'ri yurish va boshqalar) tuzatish bo'yicha ham ishlaydi. Ushbu vazifalarni bajarish ko'zi ojiz bolaning yuqori muvaffaqiyatlarga erishishiga yordam beradi.

Ko'rishida muammosi bo'lgan inklyziv sinf o'quvchilarini ushbu murakkab jarayonni bajarish uchun tiflopedagog o'qituvchisi yordam guruhni tashkil qilsa juda ham samarali natija beradi. Jamoani shakllantirish g'ayrat, ishonch va o'zaro hurmatga asoslanadi. Bu uzoq muddat davom etadigan istiqbolli vazifalarni yanada samarali bajarilishiga olib keladi. Ushbu jamoa kelajakdagi vazifalarni tayyorlash, rejalashtirish va hamkorlikda o'rganish uchun asos yaratadi. O'quvchilar, otalar, jamoat va maktab xodimlari bilan muqobil aloqalarni o'rnatish o'quvchining ijtimoiy, hissiy, kommunikativ va ta'limiy rivojlanishiga yordam beradi. Ko'pincha ko'rish qobiliyati past bo'lgan o'quvchi uchun bir qator yordam xizmatlari mavjud.

Maxsus o'qituvchining vazifalari:

Maktablarda inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilarining salohiyatini rivojlantirish maqsadida o'quvchilar uchun individual o'quv dasturlari ishlab chiqiladi. Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflardagi ta'lim-tarbiya jarayonining nazorati ushbu sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Maxsus pedagoglar inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda hamda maxsus yordam ko'rsatish xonalarida o'quvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib boruvchi va muvofiqlantiruvchi asosiy mutaxassis hisoblanadi. Maxsus pedagoglar boshqa pedagoglar bilan birgalikda inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilari bilan ishlash rejasini tuzadi va ularni sinfga uyg'unlashtiradi. Maxsus pedagoglar korreksion ta'limni olib boradi, mashg'ulotlarning mazmuni va metodlarini tanlaydi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik, tibbiy yordam ko'rsatilishini muvofiqlashtiradi, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda umumiy mashg'ulotlarni, kichik guruhlarda va alohida-alohida mashg'ulotlarni olib boradi. Zarurat bo'lganda o'quvchilar bilan qo'shimcha yakka tartibda mashg'ulotlar tashkil etiladi. O'quvchilarning o'quv-tarbiya jarayonida ishtirokini ta'minlash hamda ularning individual (moslashtirilgan) ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda tyutorlar yaqindan yordamlashadi.

- Har bir alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning kuchli tomonlarini aniqlash va qaysi sohalarga ehtiyojini aniqlash uchun diagnostik baholashni ta'minlaydi;

- o'qituvchiga baholash jarayonida materiallar va manbalardan foydalanish borasida maslahatlar beradi;

- milliy dastur asosidagi ta'limni samarali o'zlashtirilishida muhim o'rindagi maxsus yondoshuvlarni amalga oshiradi;

- o'quvchilarning bilimini nazoratini to'g'ri amalga oshirilishi va baholanishi uchun tavsiyalar ishlab chiqadi;

- o'quvchilar bilan individual ta'lim dasturlarini, nuqsonlarni tuzatish (korreksiya) va ular bilan bog'liq bola rivojlanishining o'ziga xosliklarini bartaraf etish ishlarini amalga oshiradi;

- maktabda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda ishtirok etadi;

- ota-onalar va keng jamoatchilikka maslahat beradi.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun o'yinlar

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning so'z boyligi hamda talaffuzi ustida ham korreksion ishlar olib borishda o'yinlarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Ularga bir nechta namunalarni kiritishimiz mumkin.

“Pochtalon posilka tashiydi” o'yini

Uyinning maqsadi: O'quvchining o'z boyligini oshirish hamda talaffuzi ustida ishlash.

Jihozlar: Paketga solingan o'yinchoqlar (o'yinda qatnashuvchilar soniga qarab).

O'yinning borishi: O'yinchoqlar yuk mashinasiga taxlanadi, bular posilkalar hisoblanadi. Pochtalon ularni tashiydi. U birinchi paketni maxsus o'qituvchiga beradi. Maxsus o'qituvchi paketni ochadi va nima olganligini, (ya'ni predmetning nomini aytadi va shu predmetni ta'riflaydi, uning rangini, ba'zi hollarda esa hatto shaklini, u bilan qanday o'ynash kerakligini aytadi. Bolalar ham paket olganlarida olgan predmetlarini logoped gapirib bergandek ta'riflab beradi. Ko'rgazmali materiallar, didaktik o'yinlar bolalar tafakkurini takomillashtiradi, ularning idrokini o'stirib, ma'lum izga soladi.

“Qo'g'irchoq mehmonga boradi” o'yini

O'yinning maqsadi: Ovqatlanishda foydalanadigan predmetlarning nomini esda saqlab qolish.

Jihozlar: Tarelka, stakan yoki piyola, non qo'yadigan idish, dasturxon, katta patnis va boshqalar.

O'yinning borishi: - Bolalar! Keling mehmon-mehmon o'ynaymiz! - deydi maxsus o'qituvchi. So'ngra Fotimaga Nasibaning qo'g'irchoq'ini ovqatga taklif qilishni aytadi. Nasiba Fotimaning qo'g'irchoq'ini mehmonga taklif qiladi. Bolalar mehmonni kutib olishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydilar. “Stolni yasatamiz, - deydi maxsus o'qituvchi, - Fotima, stolni olib kel. Baxtiyor, sen esa ikkita kreslo olib kel.

Qaranglar, bolalar, katta patnisda har xil narsalar turibdi. Buni Gulmira yasatibdi. Qani, Gulmiraxon stolga quyiladigan narsalarning nomini birma-bir bizlarga aytib bergin-chi” Bola narsalarning nomini ayta boshlaydi. Maxsus o‘qituvchi esa o‘yin davomida bolalarning diqqatini tortish uchun: Qaranglar, bolalar, Munis narsalarning nomini to‘g‘ri aytyaptimi? Xato qilmayaptimi? - deb o‘rtaga savol tashlaydi va o‘zi bolaning barcha harakatlarini sinchiklab kuzatib boradi, adashib qolganda ko‘maklashadi. Maxsus o‘qituvchi bolalar bilan birga tuzatilgan stolni yana bir marta tekshirib ko‘radi. Hamma narsa tayyor bo‘lgandan keyin bolalar o‘z qo‘g‘irchog‘i, ya‘ni mehmonni kutib oladilar va uni stolga o‘tkazadilar. Maxsus o‘qituvchi bolalardan tarelka, qoshiqchalar, vilka, pichoq, piyola va boshqa narsalar qayerda turishini birma-bir so‘raydi. Logoped bolalarga: qo‘g‘irchoqlar ovqatlanayotgan paytda tarelkadan nimalar yeyishyapti, qoshiq-vilka bilan nima qilinadi, pichoq bilan nimalar kesiladi, piyolada nimalar ichish mumkin kabi so‘roqlar orqali ularning bilimlarini yanada mustahkamlab boradi. Bolalardan 2 - 3 nafari o‘yin oxirida o‘yinchoqlarni o‘z joyiga yig‘ishtirib qo‘yadilar. Mazkur o‘yin orqali bolalarning so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlari, gaplarni to‘g‘ri tuza olishlari tekshirib boriladi. Bolalarning og‘zaki nutqidagi nuqsonlar hisobga olinadi. Og‘zaki didaktik o‘yinlar bolalarga tanish materiallar asosida o‘tkaziladi. Shu boisdan ham ana shunday o‘yinlar yordamida bolalarning nutqi tez o‘sadi va fikrlash qobiliyati aktivlashadi. Ammo shu bilan birga, og‘zaki ta‘riflash asosida predmetlarni umumiy xususiyatlariga ko‘ra, gruppalash kabi topshiriqlar bolalarning tasavvurlarini aniqlashtiriladi.

“Pochtalyon” o‘yini

O‘yinning maqsadi: Bolalarga o‘quv qurollarini tanishtirish.

Jihozlar. Konvert, sumka, turli xil gazeta va jurnallar.

O‘yinning borishi: Maxsus o‘qituvchi bir bolani pochtalyon qilib tayinlaydi. U gazeta-jurnallar solingan sumka bilan sinfga kiradi. Pochtalon Bolalarga qarata: Kim topadi? Nima olib keldim? - deydi. Bolalar o‘quv qurollarining nomlarini aytadilar. Yuk, topa olmadinglar. Bolalardan biri jurnal deb javob beradi. To‘g‘ri,

yana nimalar bor, ayting-chi? Gazeta, xat, – deyishadi bolalar. Bolalarda predmetlarning ma'lum belgilariga qarab topshirilgan shartlar bo'yicha gruppalashtirish qobiliyatini o'stiradigan o'yinlar.

“Bu nima?” o'yini

O'yinning maqsadi: Bolalarga buyumlarni qaysi gruppaga kiritishni, ularning xususiyatlariga qarab bir-biridan farqlashni o'rgatish.

O'yinning borishi: Bolalar doira hosil qilib turadilar. Maxsus o'qituvchi koptokni goh bir bolaga, goh ikkinchi bolaga navbat bilan tashlab, biror so'z aytadi. Koptokni qilib olgan bola esa maxsus o'qituvchi aytgan so'z nimani ifodalashini tez aytib berishi lozim. Masalan:– bu uyinchoq – qo'g'irchok;

bu uy jihozi – stol;

kiyim — ko'ylak;

idish — stakan va hokazo.

O'quvchi o'yin davomida bir oz qiynalishlari mumkin, bunda maxsus o'qituvchi tushuntirishi lozim.

Ziyraklik, og'zaki javobda xozirjavoblikni o'stiradigan o'yinlar.

“Magazindan xarid qilish”

Maqsadi: Bolalarni kishilarga madaniy muomala qilishga o'rgatish. Ogzaki nutq malakalarini oshirish.

Jihozlar: Turli o'yinchoqlar, kiyimlar.

O'yinning borishi. Bolalarning o'yinchoq vistavkasi, o'yinchoklar do'konchasi.

Maxsus o'qituvchi o'yin mazmuniga ko'ra bugun bolalar dunyosi magaziniga borishlarini, u yerda chiroyli va qiziqarli o'yinchoqlar borligini, ularni kuzatish, tanlagan o'yinchoqlarni olishdan oldin sotuvchiga iltimos bilan murojaat

qilishni aytadi. Shuningdek, logoped “Marhamat”, “Rahmat” soʻzlarini esdan chiqarmaslik, aniq, ravon gapirish lozimligini taʼkidlaydi.

“Sen buni qachon bajarasan?” oʻyini

Oʻyinning maqsadi: Bolalarda madaniy-gigienik koʻnikmalarni mustahkamlash va ularning nutqini oʻstirish.

Jihozlar: Tish pastasi, tish choʻtkasi, sovun, sochiq, taroq, oyna, oyoq choʻtka, turli moylar va boshqalar.

Oʻyinning borishi: Maxsus oʻqituvchi stol ustida turgan predmetlardan birini olib, bolalarga qarab baʼzi bir harakatlarni bajaradi. Masalan: U qoʻlini sovun bilan yuvadi, tishini choʻtka bilan tozalaydi, oyoq kiyimini choʻtkalaydi. Soʻngra bolalardan “Sen buni qachon bajarasan?” deb soʻraydi. Bolalar har bir harakatdan soʻng bu harakatlar qachon bajarilishi haqida gapiradilar.

“Rasmga qarab ayting-chi” oʻyini

Oʻyinning maqsadi: Oʻquvchilardagi gigienik koʻnikmalarni mustahkamlash hamda rang tuzish qobiliyatini shakllantirib borish.

Jihozlar. Gigienaga oid predmet va harakatlar aka ettirilgan rasmlar.

Oʻyinning borishi: Maxsus oʻqituvchi bolalarga gigienik predmetlar va harakatlar aks ettirilgan rasm - kartochkalar koʻrsatadi. Oʻquvchilar shu rasmlardagi tasvirlar haqida gapirib beradilar. Bolalar gigienik predmetlarga oid quyidagicha: Taroq bilan soch taraladi. Taroqni toza tutish lozim. Sochiqni toza saqlang. Sochiqdan qoʻl - yuzni artish-da foydalanamiz kabi gaplarni tuzishi mumkin. Sovun rasmi koʻrsatilsa, bolalar: sovun bilan yuzimizni yuvamiz. Sovun yuz-qoʻlni, badanni toza qiladi – deb javob beradilar.

“Suratni top” oʻyini

Oʻyinning maqsadi. Oʻquvchilarni tozalik qoidalariga qatʼiy rioya qilishga va rasmlarni mavzu asosida topa olishga oʻrgatish.

Jihozlar: Fasllar, kiyim-bosh, idishlar, o'yinchoqlar tasvirlangan rasm - plakatlar.

O'yinning borishi: Maxsus o'qituvchi katta rasm-plakatni doskaga ilib qo'yadi - plakatning temasi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, "Tushlik ovqat", "Nonushta" va hokazo. O'quvchilar yog'och mavzusiga mos kartochkalar tanlab olib, nomini aytadilar va shunga oid gap tuzadilar. Masalan, turli ovqatlar aks etgan yoki qo'lida sochiq ushlagan bola aks etgan rasm. Mavzuga mos kartochka suratlarni to'g'ri topa olgan bolalar o'yinda ochko oladilar. O'yinning II variantida bolalarga rasmlar ko'rsatilib, ular asosida o'quvchilarining fikrlashi, gap tuza olish qobiliyati aniqlanadi.

"Ranglarni to'g'ri topa olasizmi?" o'yini

O'yinning maqsadi: O'quvchilarga ranglarni farqlashga o'rgatish, predmetlarning ranglariga qarab aniqlay olish. Bolalar tasavvurini o'stirish.

Jihozlar: Turli rangdagi narsa va predmetlar, o'yinchoqlar, kiyimlar.

O'yinning borishi: Maxsus o'qituvchi bolalarga qalam, kitob, doska, shkaf, pol, ro'mol, ko'ylak, shlyapa, qalpoq, lenta, fartuk, stol, stul, veshilka kabi predmetlarni birma-bir ko'rsatadi. O'quvchilar yuqorida aytilganlarning rangini birma - bir aytib beradilar. Rangni aytishda adashgan o'quvchilar hisobga olib boriladi. Ranglarni to'g'ri aytgan bolalarga ochko belgilanadi.

O'yinning II varianti. O'quvchilarga kartochkalardagi ranglar ko'rsatiladi. Ular ko'rsatilgan rangga mos predmet nomini qo'shib (qora qalam, qora doska, qora fartuk, qora pechka kabi) aytadi.

"Bayroqcha" o'yini

O'yinning maqsadi. Ranglarni tez ayta olish va ko'zlangan maqsadni amalga oshirish.

Qo'llanmalar. O'yinda qatnashayotgan har bir o'quvchiga bittadan rangli bayroqcha tarqatiladi.

O'yinning borishi. Maxsus o'qituvchi o'quvchilarga bayroqchalarni tarqatgach, ularning qo'llaridagi bayroqchaning qanday rangda ekanligini aytishlarini talab qiladi. Bolalar bayroqchalarning rangiga qarab gruppalariga bo'linadilar. Har bir gruppaga ma'lum rangdagi bayroqcha bilan belgilangan joyda to'planadi. Keyinchalik joylar yana maxsus o'qituvchi ko'rsatmasi asosida almashinadi. Masalan, ko'k bayroqcha olgan bolalar karta oldida uchrashadilar, yashil bayroqchali bolalar doska oldiga saflanadilar, oq bayroqchalilar esa davra qurib turadilar. So'ngra ularga erkin topishga ruxsat beriladi va yo'l-yo'lakay turli topshiriqlar berib boriladi. Bunday topshiriqlar asosida bolalarda ranglarni ajrata olish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

“Predmetni og'zaki tasvirlash” o'yini

O'yinning maqsadi: Materiallarga ko'ra predmetlarni gruppalarib tanlab olish.

Qo'llanmalar: Predmetlar, har xil materialdan yasalgan o'yinchoqlar (metall, yog'och, rezinka, plastmassa).

O'yinning borishi: Logoped bolalarga har xil predmetlardan, yasalgan o'yinchoqlarni bo'lib beradi va ularning qaysi materialdan tayyorlanganligini, massasining og'ir-yengilligini aniqlashni topshiradi. Taklif qilingan Bola bolalarga biror predmetni ko'rsatadi. U ko'rsatgan predmeti qo'g'irchoq ekanligini va u rezinadan yasalganligini aytadi. Shuningdek, qoshiqning yog'ochdan yasalganini yoki pichoqning metaldan tayyorlanganini izohlaydi. So'ngra turli materialdan yasalgan predmetlar aralash holda qo'yiladi. Taklif qilingan o'quvchi predmetlarni nimadan tayyorlanishiga qarab ajratadi. O'yinchoqlarni materialga binoan to'g'ri tanlagan o'quvchi g'olib chiqadi. O'yin oxirida g'olib e'lon qilinadi.

“Toping-chi” o'yini

O'yinning maqsadi. Bolalarni ayrim predmetlarning ko'rinishini eslagan holda yoki ularning ayrim belgilariga ko'ra topa olishga o'rgatish.

O'yinning borishi. Maxsus o'qituvchi biror predmetning rasmini ko'rsatadi yoki ayrim belgilarini og'zaki tasvirlaydi. Tasvirlash asosida topishmoqlarni aytish mashq qilinadi.

Qat - qatlama, Aqling bo'lsa tashlama (<i>Kitob</i>).	Oq ep ochdim, Qopa bug'doy sochdim (<i>Daftar</i>).
--	--

Pak-pakana bo'yi bor,

Yetti qavat tuni bor.

Terib xirmon qilgan edim,

Bo'lib ketdi tog' – tog' gulim (*Paxta*).

“Cho'kadimi yoki suzadimi?” o'yini

O'yinning maqsadi: Yengil va og'ir predmetlar haqida tushuncha berish, bolalarda ziyraklik qobiliyatini rivojlantirish.

Qo'llanmalar: Turli xil materiallardan yasalgan predmetlar: yog'och, metall, plastmassadan yasalgan suvli idish.

O'yinning borishi: Bolalarga bir qancha predmet tarqatiladi. Har bir bolaga turli xil topshiriqlar beriladi. Predmetlar ikki gruppaga ajratilib, ularning qaysisi cho'kishi va qaysisi suza olishini aniqlash topshiriladi. O'quvchilar predmetlarni galma-gal suvli idishga solib ko'rib, javob aytadilar. Metallar – og'ir , cho'kadi. Yog'och qayiqcha – yengil, suzadi. Shu tarzda har bir Bola o'zini sinovdan o'tkazadi.

“Eslab qol” o'yini

Maxsus o'qituvchi o'yin maqsadini tushuntirib beradi, ya'ni bolalar biron predmetning bir qancha belgisi va harakterli xususiyatlarini eslab qolishlari lozimligini ta'kidlaydi. Masalan, quyoshning issiqlik tarqatishi, nur sochishi, yorug'lik berishi aytiladi. Havo haqida: toza havo, issiq havo, sof havo, iliq havo,

sovuq havo; shamol haqida: shamol esdi, iliq shamol, sovuq shamol, bulut haqida: bulut chiqdi, havo bulut, bulutli kun kabi.

Bu o'yinni o'rgatishda bir gruppada bittasiga bitta predmet belgisi haqida, ikkinchisiga boshqa predmet belgisi haqidagi so'zlarni eslab qolish tavsiya etiladi. Qaysi gruppada o'quvchilari so'zlarni puxta eslab qolsa, o'sha gruppada g'olib hisoblanadi. O'yinni davom ettirib, gruppalar o'rnini almashtirish ham mumkin.

“Do‘kon” o‘yini

O'yinning maqsadi: Bolalarni predmetni ta'riflashga, uning asosiy belgilarini aniqlashga va shu ta'rif bo'yicha predmetni topishga o'rgatish.

O'yinning borishi: O'quvchilar o'yinchoqlar terilgan stol yoniga o'tiradilar. Maxsus o'qituvchi o'quvchilarga murojaat qiladi: Tumanimizda yangi do'kon ochildi. Bir qaranga, qancha chiroyli o'yinchoqlari bor. Siz uni xarid qilib olishingiz mumkin. Ammo o'yinchoqni sotib olish uchun uni ta'riflash kerak. Sizning ta'rifingizga binoan sotuvchi uni topib, sizga sotadi. Maxsus o'qituvchi birinchi bo'lib o'yinchoqni sotib oladida, o'yin qoidalarini qanday bajarishni ko'rsatadi: “O'rtoq sotuvchi, men o'yinchoq sotib olmoqchiman. U dumaloq, rezinkadan, sakrashni biladi, uni bolalar sevadi”. Sotuvchi oluvchiga koptok uzatadi. “Rahmat, juda chiroyli koptok ekan!” - deydi. Logoped koptokni olib, stulga o'tiradi. Endi sotuvchi o'yinga qatnashuvchilardan birontasini o'zi tanlab, uning nomini aytib chaqiradi. Nomi aytilgan bola do'kondan xarid qilmoqchi bo'lgan o'yinchog'ini ta'riflaydi: “Menga esa shunday o'yinchoqni sotingki, u momiqgina, mallarang, dumi uzun va chiroyli bo'lsin. Yana shuni ham aytib quyayki, uning tumshug'i cho'ziq va ko'zlari ayyor!” Sotuvchi tulki o'yinchog'ini olib beradi. Sotib oluvchi minnatdorchilik bildirib, o'rniga o'tiradi. O'yin hamma qatnashuvchilar o'zlariga o'yinchoqlar sotib olganlarigacha davom etadi. O'yin davomida sotuvchilikni galma-gal bir necha bola bajarishi mumkin. Bolalar sotib olgan o'yinchoqlari bilan alohida shug'ullanadilar.

“Nima o'zgardi?” o‘yini

O'yinning maqsadi: Bolalarda taqqoslash, solishtirish qobiliyatini shakllantirib borish.

O'yinning borishi: Logoped bolalar bilan birgalikda biror o'yinchoq yoki qo'g'irchoqning rasmini yaxshilab kuzatishadi. Shu kuzatish asosida qo'g'irchoqning sochi, ro'moli, ko'ylagi, oyoq kiyimi va boshqalarning ranglarini aniqlab olishadi. Keyin bolalarga huddi shu qo'g'irchoqqa o'xshagan boshqa bir qo'g'irchoqning rasmi ko'rsatiladi. Lekin uning yoqasi, sochi, oyoq kiyimi yoki boshqa bir belgisi boshqacharoq bo'ladi. Bolalar bu qo'g'irchoqning avvalgisidan nima bilan farqlanishini aytib berishlari kerak. Bu o'yinga o'quvchilar juda qiziqadilar. Unga hatto eng e'tiborsiz bolalar ham faol qatnashadilar.

“Kim tez ayta oladi?” o'yini

O'yinning maqsadi: Predmet haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

Jihozlar: Mevalar, sabzavotlar, o'yinchoqlardan: hayvonlar, idish - tovoqlar, qo'g'irchoqning kiyim-kechaklari; turli xil o'yinchoq mashinalar va boshqa narsalar.

O'yinning borishi: Maxsus o'qituvchi turli rasimli kartochkalarni stolga to'ntarib qo'yadi. Maxsus o'qituvchi qo'lga turli rasimli kartochkalarni olib, unda nima tasvirlangani, nomi va qayerda ishlab chiqarilganini aytadi. Shundan so'ng o'quvchilarning har biridan alohida-alohida so'ray boshlaydi. Agar o'quvchi to'g'ri javob bera olsa, o'yinda g'olib chiqadi. Qoliplarga alohida znachok topshirilishi ham mumkin. Agar bola kartochkadagi nomlarni noto'g'ri tushuntirsa yoki ayta olmasa rasm pastga olib quyiladi. Ma'lumki, o'yinda kim rasmdagi nomlarni to'g'ri topa olsa, shu o'yinda faol qatnasha oladi. Shuning uchun bu o'yinni boshlashdek oldin o'quvchi unga bolalarni tayyorlab borish kerak.

O'yinning ikkinchi varianti.

Har bir o'yin ishtirokchisi bittadan kartochka oladi. Kartochkalarda turli narsalar tasvirlangan (sabzavotlar, o'yinchoqlar, idish-tovoqlar). O'yin ishtirokchilaridan biri o'z qo'lidagi kartochkani stolga qo'yadi. Keyingi o'quvchi

esa o'sha o'quvchining kartochkasiga mazmunan yaqin bo'lgan kartochkani tanlab qo'yadi. Masalan, kiyim-kechaklarga oid kartochkani qo'yish deylik. Kim shu kartochkadagi rasmini noto'g'ri qo'ysa, shu o'quvchi qarzdor bo'lib qoladi va yoddan bironta topishmoq, she'r yoki ashula aytib, qarz to'laydi.

“Kim tez topa oladi?” o'yini

O'yinning maqsadi: Tez fikrlashga o'rgatish.

O'yinning borishi: Har bir o'yinda qatnashuvchi o'ziga kerakli o'yinchoqlar, sabzavotlar, idish tovoqlar va boshqalarning tasviri chizilgan kartochkalarni, ya'ni olti turdagi kartochkalarni topadi. O'yin boshlovchi xohlagan bir kartochkani o'rta tashlaydi. Shundan keyin boshqa o'quvchi boshlovchi o'quvchining ishini davom ettirishi mumkin. Masalan, birinchi o'quvchi olgan kartochkasining davomini, shu berilgan mavzu asosida topadi. Qolgan o'quvchilar boshqa gruppadagi, masalan, sabzavotlarga doir kartochkalarni oladi va bunday paytda o'yin iloji boricha shu kartochkalar asosida davom etadi. Kimda kim bu o'yinda adashib qolsa, boshqa gruppaga o'tib ketadi. Agar topa olmasa, qarz to'laydi.

“Xona bo'ylab sayohat” o'yini

O'yinning maqsadi: Xonadagi narsa va predmetlarning nomini aytish, ularni gruppalariga o'rgatish.

O'yining borishi: Guruh bolalari to'rt guruhga ajratiladi. Har bir guruh o'quvchilariga turli topshiriqlar beriladi.

1-guruhga qog'ozdan, 2-guruhga plastmassadan, 3-guruhga metallardan, 4-guruhga yog'ochdan ishlangan narsalarni xona ichidan izlab topish buyuriladi.

Har bir guruhdagi o'yin ishtirokchisi topgan narsasining nomini va uning nimadan tayyorlanganligini aytadi. O'yin davomida kimda kim narsalarning nomini va tayyorlanishini tez va batafsil ayta olsa, shu Bola g'olib hisoblanadi. O'yin oxirida boshqaruvchi g'olib chiqqan guruhni e'lon qiladi.

“Biz qanday kiyinamiz?” o'yini

O'yinning maqsadi: Bolalarning kiyim-kechaklar haqidagi bilim, malakalarini aniqlash va ulardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish.

Qo'llanmalar: Bolalar kiyimlari yoki shu kiyimlar tasvirlangan rasmlar.

O'yinning borishi: Har bir o'quvchi bolalar kiyimlarining nomlarini ayta boshlaydi. Logoped Bolaning so'zini diqqat bilan kuzatib boradi. Chunki bir Bola aytgan nomni ikkinchi Bola takrorlamasligi lozim. Masalan: mayka, ko'ylak, qalpok, paypoq, qo'lqop va boshqalar. O'yinlar tez va qiziqarli holda olib borilishi k yarak.

“Bu nima?” o'yini


O'yinning maqsadi: O'quvchilarning predmet va narsalar haqidagi bilimlarini boyitish.

O'yinning borishi. Ma'lumki, har bir narsa-predmetning o'ziga xos xususiyati bo'lgani kabi ovozi ham bo'ladi. Masalan, qog'oz shaldiraydi, taxta taqillaydi, qo'ng'iroq jiringlaydi. O'quvchilar o'yinda ishtirok etayotgan narsaning tovushi orqali uning nomini aytishga o'rganadilar. Buning uchun maxsus o'qituvchi ayrim narsalarni o'quvchiga ko'rsatmagan holda uning ovozini chiqaradi. Masalan, u stakan, yoki piyolaga koshiqni solib shakillatadi. O'quvchi maxsus o'qituvchining harakati orqali predmetlarning nomini aytishga odatlanib boradilar.

O'quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish


O'quvchilarni fikrlash doirasini oshirish va taqqoslash tushunchalarini oshirish maqsadida quyidagi jadval asosida ko'rsatib o'tilgan.


											
	Shisha							Shisha			
											
											
	Yog'och							Yog'och			
											
											
	Yung							Yung			
											
											
	Chinni							Chinni			
											
											
	Jun							Jun			
											



Nima yo'qoldi o'yini haqida umumiy ma'lumot

Maxsus o'qituvchi alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni psixologik xususiyatlarini shakllantirish hamda dastlabki asosiy tushunchalar hosil qilish uchun “Nima yo'qoldi o'yini” ni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Dastlab uchburchak, to'rtburchak, doira, aylana hamda yulduzcha shakllari yasaladi va shu shakllarga nom berib chiqiladi.



	O'ng qo'l		Chap qo'l
	Bosh		Yuz




Xattaxtaga barcha shakllar qator qilib ilinadi. Har bir shakl ko'rsatilib ularga atab qo'yilgan a'zolar aytiladi. Misol uchun uchburchak deganda o'ng qo'l ko'rsatiladi kabi. Barcha o'quvchilarga o'yin jarayoni tushuntiriladi. Barcha birgalikda o'qituvchi tun degan vaqti ko'zini yumadi. Kun degan vaqti barcha ko'zini ochadi. O'yin shu tartibda boshlanadi. O'qituvchi tun degan vaqti o'quvchilar ko'zini yumadi. Shu vaqti o'qituvchi xattaxtaga ilingan shakllardan birini olib qo'yadi. O'qituvchi kun degan vaqti ko'zini ochib tushirib qoldirilgan shaklni belgilangan a'zolaridan birini ko'rsatadi. Barcha shakllar shu kabi xattaxtadan olinadi. Maxsus o'qituvchi ushbu o'yinni murakkablashtirib borishi kerak. Shakllar o'rniga boshqa predmetlardan ham foydalansa bo'ladi.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni fikrlashini diqqatini hamda mantiqiy tafakkurini shakllantirish maqsadidagi ko'rgazmali qurollar:

Berilgan 1-rasmdan 4 ta delfinni, 2-rasmdan 4 ta sabzini topish




Ramashka gulini hamda globusni topish





Rasmlarga mos soʻzlarni qoʻyish mashqi









Berilgan qismlarni boʻyab ushbu rasmni
hosil qiling.






Qismlardan tayyor shakllarni chiqarish



Bir xil shakllarni bir xil ranga bo'yang



Inklyuziv ta'limda maxsus o'qituvchi innovatsion texnologiyalarni qo'llashi

Innovatsion texnologiyalari maxsus ehtiyojli bolalarni ommaviy ta'lim muassasalariga kiritish hamda ularning vazifalari: Bolaning rivojlanishini, uning o'qishdagi muvaffaqiyatini nazorat qilish, moslashish muammolarini hal qilish, yordam berish, ixtisoslashgan korresiyalovchi va psixologik yordamni ta'minlaydi. Sog'lom tengdoshlarini alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan kirishish jarayonidagi muhiti, binobarin, ta'lim sohasida bolalarga ixtisoslashgan tuzatuvchi psixologik yordamning yaxshi tashkil etilganligi hamda yaxshi ishlaydigan infratuzilmasini faoliyat ko'rsatishi ko'zda tutiladi.

Ta'lim jarayonida integratsiyaning bir necha turlari mavjud bo'lib ular:

- kombinatsiyalangan integratsiya (turlari bo'yicha ta'lim);
- Qisman integratsiya (ta'lim va ijtimoiy);
- vaqtinchalik integratsiya (tashqi ko'rinishida ijtimoiy);

- aralash integratsiya (turlari bo'yicha ta'lim).

Hozirgi kunda eng samarali va maqsadga muvofiq bo'lgan quyidagi texnologiyalar mavjud:

Interaktiv texnologiyalar. Bu texnologiya quyidagilarga imkon beradi:

- bolalar guruhdagi tengdoshlari bilan va kattalar bilan aloqani o'rnatish;
- ta'lim jarayoniga sezilmasdan aralashish;
- mustaqil ravishda o'zaro berilgan baho bola uchun tushunarli bo'lishi va uni xolis qabul qilish;
- guruhda turli xil o'quv vaziyatlarini yaratish (har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda). Buning uchun siz turli xil variantlarni sinab ko'rishingiz mumkin.

Bundan tashqari, ushbu texnologiyalar o'qituvchilarga alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda bolaga mustaqil ravishda o'quv materialini yaratishga, shuningdek kerakli o'zgarishlarni iloji boricha tezroq va moslashuvchan qilishga imkon beradi.

Hozirgi kunda zamonaviy kompyuter texnologiyalari masofaviy ta'lim konsepsiyasini butunlay o'zgartiradi. Darhaqiqat, endi, o'quvchi sinfdan tashqarida bo'lishiga qaramay, u nima bo'layotganini ko'rishi, eshitishi va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, bunda o'ta muhim vazifa mutaxassislar, o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarni doimiy va samarali qo'llab-quvvatlash va nazoratini amalga oshirish imkonini kengaytiradi. Bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish aynan shularga bog'liqdir. Shu bilan birga, o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari uchun ko'p funksiyali interaktiv sensorlar majmuasi yordamida erishish mumkin bo'lgan qo'llab-quvvatlash tizimini amalga oshirishga xizmat qiladi. Uning yordami bilan psixofiziologik rivojlanish, korreksiyalash va sensorli integratsiya funksiyalarini rivojlantirish, tuzatish va rivojlanish ishlarini amalga oshirishga qaratilgan turli kompleksli muammolarni hal qilishga imkon beradi. Ya'ni:

1. Ko‘pincha darsda o‘qish paytida bolaga darslikni ochishda, kerakli sahifani topishda, qayerda o‘qishimizni ko‘rsatishda, qayerda o‘qiyotganimizni ko‘rsatishda yordam berish kerak (bolalar diqqatni jalb qila olmaydi) bo‘ladi. Bunday lahzalar har qanday sinfda uchraydi, bu holda bola ba‘zi sabablarga ko‘ra darsning borishini kuzatishni istamaydi va tanqidga uchraydi. Inklyuziv sinfda alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar shunchaki darsni kuzata olmaydilar, shuning uchun ularga yordam berilishi kerak;

2. Dars davomida siz topshiriqlarni bajarish vaqtini ko‘proq qilishingiz kerak (agar bu matn uchun savollar bo‘lsa, unda siz 3 ta yoki 4 ta savollarni muhokama qilishingiz mumkin), shuningdek, matnni to‘liq o‘qimaslik tavsiya etiladi, chunki bolalar juda tez charchaydilar;

3. Savollarga javob berganda, respondentga o‘ylash uchun biroz ko‘proq vaqt berilishi kerak (bolalarning reaksiyasi sekinlashish holati kuzatilishi mumkin);

4. Yozma ish, testlar ancha vaqt talab etadi (o‘qituvchining yordami kerak - daftar toping, daftarni oching, daftar, qalam toping va h.k.). Bunday hollarda alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun vazifani quyidagicha shakllantirishingiz kerak:

- Topshiriq og‘zaki va yozma ravishda tuzilishi kerak;
- Vazifa qisqa, aniq, bitta harakatni ifodalaydigan, bir necha bosqichlardan iborat bo‘lishi kerak;
- Vazifalarni shakllantirishda yakuniy mahsulotni ko‘rsating (tayyor matn, matematik muammoning yechimi va hokazo);
- Vazifani bola bilan birga shakllantiring;
- Bolaga ishni tugatish imkoniyatini bering;

Bolani to‘g‘ri baholashi, matematik amalni bajarishi uchun siz quyidagi jihatlarni hisobga olishni taklif qilishingiz mumkin:

- bolaning salbiy tomonini emas, balki uning yaxshi xulq-atvorini ta'kidlashga harakat qiling;
- intizomning kichik buzilishlariga e'tibor bermang;
- o'quvchingizning xatti-harakati dori-darmon bilan bog'liq bo'lishi mumkinligiga e'tibor bering;
- siz aytganingizdan so'ng, "to'g'ri" so'zini o'ylab ko'ring, qaysi bola noto'g'ri ish qilmasligini tushunadi;
- rivojlanish, o'sishni ko'rsatish uchun oraliq bahodan foydalaning;
- o'quvchi yaxshi baho olishi uchun topshiriqni qayta yozishiga, o'qishiga ijozat bering (keyinchalik qayta ishlangan ish uchun bahoni hisoblang);
- bolaning o'sishi va rivojlanishini baholashda iqtidori, imkoniyatidan kelib chiqqan holda baholash tizimidan foydalaning.

Agar "alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan" bolaga butun sinf oldida javob berish qiyin bo'lsa, unda unga tugallangan topshiriqni kichik guruhda o'rtoqlarining yordamidan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin. Guruh ishi bu o'quvchilarga o'z tengdoshlarini ochishiga va o'rganishiga imkon beradi.

Juftlikda ishlash



Juftlikda ishlash o'zaro birgalikda qo'yilgan muammoni o'rganish, birgalikda yechimini yechishda o'zaro fikr almashish orqali o'z imkoniyati, xulosasini sinf oldida taqdimot qilishga tayyorlaydi. Shuning uchun bu usul inklyuziv ta'limning yetakchi texnologiyalaridan biri hisoblanadi. Chunki bu vaziyatda har bir o'quvchi o'z bilganini ikkinchi o'quvchi bilan o'rtog'i bilan bo'lishadi, fikrlar ziddiyati vujudga keladi, har biri o'z fikrini tasdiqlovchi dalil izlaydi, ijod qiladi. To'g'ri xulosaga kelgach, sinf oldida dadil javob berishga tayyor bo'ladi.

Bunda albatta kuchli o'quvchi bo'shroq bo'lgan sherigiga tushuntirib yordam berish holatlari ham bo'ladi. Bunda bolalar bir-birini o'qitish jarayoni kechadi. Har ikki holatda ham o'quvchilarning ijodiy, tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Bu holatda ayniqsa e'tiborga molik jihati shundaki, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchida o'ziga, o'z imkoniyatiga ishonchi ortadi va ta'limda yaxshi natijalarga erishadi.



Ta'limda guruhlarda ishlash texnologiyasi

Guruh ishi - bu o'qituvchining umumiy bitta mavzuni o'ziga xos vazifalar ustida ishlashda sinfni bir nechta guruhga bo'ladi. Guruhlarda mavzuga bo'yicha qo'yilgan vazifa ustida ishlashini o'z ichiga olgan darsdagi o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish shaklidir. Bunday jarayon o'quvchilar o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan o'zaro munosabatlarni, o'zaro javobgarlik va hamkorlik aloqalarini rag'batlantiradi. Ish jarayonida har bir o'quvchi o'z fikri, javobini berishi va barcha bitta xulosaga kelguncha o'z nuqtayi nazarini himoya qilish huquqiga ega bo'ladi. Guruhning hajmi har xil bo'lishi mumkin. Siz 4-6 kishilik guruhni tashkil qilishingiz mumkin. Bunday guruh kichik guruh deb nomlanadi.

Kichik guruhlarda ishlash metodlari va usullari



Kichik guruhlarda ishlash aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan o'quvchilar uchun ancha qulayroq, chunki ular kichik guruh sharoitida ancha faollashadi. Bu o'quvchilar ko'pincha butun sinf jamoasi oldida gapira olmaydilar va o'z fikrlarini butun sinf va o'qituvchi oldida baland ovoz bilan aytolmaydilar, ammo guruhda ular faolroq pozitsiyani egallashi, taklif qilingan

savollar va vazifalarni hamma bilan muhokama qilishi mumkin. **“Ma‘lumot qidirish”** o‘yini. Savollar barcha guruhlar uchun oldindan ishlab chiqilgan bo‘lib, ularga javoblarni turli xil ma‘lumot manbalarida topish mumkinligi aytiladi. Dars oxirida har bir guruh to‘plagan ma‘lumotlari, xabarlarini qiladi. Ushbu turdagi guruh ishi aqliy rivojlanishi, eshitishi va ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar inklyuziv sinfda ishlashi uchun juda mos keladi, chunki ular uchun internetdan ma‘lumot topish qiyin bo‘lmaydi.

“G‘oyalar doirasi” o‘yini. Kichik guruhlar o‘zlarining topshiriqlarini bajarib, ma‘lumotlarni yetkazishga tayyor bo‘lgach, ularning har biri muammoning faqat bitta tomonini bayon qiladi. So‘ngra, aylanaga kirib, o‘qituvchi barcha guruhlar tugaguniga qadar barcha guruhlardan navbat bilan so‘raydi. Bu har bir guruhga o‘z ishining natijalari bilan o‘rtoqlashish imkoniyatini beradi, faqat birinchi so‘zga chiqqan guruh barcha ma‘lumotlarni taqdim etadigan holatlar bundan mustasno.

“Rolli o‘yin” –bu o‘quv faoliyatini tashkil etish shakli bo‘lib unda har bir o‘quvchiga voqelikning faol tashkilotchisi sifatida chiqishiga imkoniyat yaratiladi. Bu o‘yin rivojlanishida muammosi bo‘lgan o‘quvchiga o‘qituvchi va sinf oldida ularni qamrab oladigan ichki cho‘chish, jur‘atsizlikni yengishiga yordam beradi.

O‘quvchilarning yutuqlarini baholash. Aqliy, ruhiy, autistik, eshitish yoki ko‘rishida muammolari bo‘lgan o‘quvchini o‘qitish va faoliyatini baholash jarayonida o‘qituvchi bolaning imkoniyatlariga mos keladigan, uning aqliy va jismoniy salomatligini, hissiy muvozanatini saqlash imkoniyatini beruvchi shunday shakl va uslublardan foydalanishi kerak-ki, bu o‘quvchilar olgan bahosidan rag‘bat olsin va yanada yaxshiroq o‘qishga intilsin. Interfaol texnologiyalardan foydalangan holda inklyuziv sinfda baholash mavzusi nafaqat erishilgan ta‘lim natijalari, balki ularga erishish jarayonidir. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni baholash keyingi sinflarda ularning ishlarini rag‘batlantirishi kerak bo‘ladi.

Maxsus o‘qituvchilar uchun ba‘zi tavsiyalar:

1. Mashg'ulot davomida o'quvchining zerikishni oldini olishning eng samarali usullaridan biri bu-o'zingiz bajarayotgan ishdan zavqlanish va motivatsiya olishdir.

2. Maxsus o'qituvchi o'quvchilarga turli xil o'yinlar qo'llash hamda imkon qadra mashg'ulotlarni amaliy tarzda tashkil qilish nafaqat o'quvchining o'zlashtirishi uchun foydali, balki xotirasini rivojlanishi uchun ham juda zarurdir.

3. Mashg'ulotni tashkil qilish jarayonida o'quvchilarni o'zini erkin his qilishi, jarayon ichida qiziqarli muhit yarataolsa hamda rag'batlantirish prinsipiga amal qilish natijasida o'quvchilarning bilish darajasini oshishiga, miyadagi kislorodni ko'payishiga ham erishiladi.

4. O'quvchilar uchun eng qiziqarli o'rganish deb bilgan ishini baholash jarayonida o'zingizni hayratlanganga soling.

5. Mashg'ulot davomida faqat o'quvchiga ma'lumot bermang, turli xil sirli va o'ziga xos o'yinlar orqali bolani ichki dunyosiga kirib boring.

6. O'quvchini yodiga solish uchun berilayotgan materialni takrorlayvermang, balki uning o'rniga, o'quvchida mulohaza yurita olish imkoniyatlarini shakllantiring.

7. Barcha mashg'ulot davomida bir xillik va qat'iy intizom o'rniga ko'tarinki kayfiyat va qiziquvchanlik bo'lsa, o'quvchilarning miyasi ma'lumotlarni qabul qilishida samarali bo'ladi.

8. Boshlang'ich sinf o'qituvchi, maxsus o'qituvchi yoki fan o'qituvchilari faqat o'zining fanini bola uchun eng muhim va qiziqarli deb o'ylamang, birinchi navbatda o'quvchini qiziqishidan kelib chiqing.

**Maxsus o'qituvchi korreksion xonasini ta'minlanishi lozim bo'lgan taxminiy
jihozlar**

RO'YXATI

T/r	Zarur anjomlar nomi	Miqdori
1	Yakka holda shug'ullanish uchun deraza yoniga osilgan 110 x 45 sm. li devoriy ko'zgu	1 dona
2	Elektr yoritqich (devoriy ko'zgu uchun)	1 dona
3	O'quvchilar uchun bir kishilik parta	4 dona
4	O'quvchi uchun stul	4 dona
5	Sensor ekran (monitor)	1 dona
6	Planshet	2 dona
7	Televizor	1 dona
8	Magnitli doska (ikki tomonlama)	1 dona
9	Maxsus pedagog uchun stol, stul	1 komplekt
10	Ko'rgazmali qurollar uchun shkaf	2 dona
11	Skaf (kiyimlar uchun)	1 dona
12	Divan	1 dona
13	Gilam (palas)	1 dona
14	Logopedik zond, shpatel	1 komplekt
15	Predmetli, mazmunli va seriyali ko'rgazmali rasmlar	o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda
16	O'quv qurollari (daftar ruchka...) va o'quv qo'llanmalar (darslik, metodikalar)	o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda
17	Turli maqsadda ishlatiladigan didaktik rivojlantiruvchi o'yinchoqlar	o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda
18	Gigiyenik vositalar (spirt, paxta...)	o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabr "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi №-638-sonli qarori.
4. "Dakarskie ramki deystviy"- Senegal, 2000-yil 26-28-aprel.
5. "Inclusive teaching and learning for children with visual impairments" Teachers guide - Guy Le Fanu 2018.
6. U.Fayziyeva va boshqalar. "Tiflopedagogika" o'quv qo'llanma, "Sano-Standart" nashriyoti, Toshkent-2011.
7. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning echimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konfyerensiya matyeriallari to'plami. "Lesson-Press" nashriyoti, Toshkent-2021.
8. Maxsus pedagogika G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2005.
9. "Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar" metodik qo'llanma D. Nurkeldiyevaa, M. Ayupova, Z. Ahmedova Toshkent "Yangi asr avlodi" 2007.
10. www.ziyonet.uz
11. www.pedagog.uz.

Mundarija

- 1. Kirish.**
- 2. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari.**
- 3. Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinadigan va qabul qilinmaydigan bolalar haqida umumiy ma'lumot.**
- 4. Inklyuziv ta'limda tyutorning o'rni va ahamiyati.**
- 5. Inklyuziv ta'limda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarga yondashish usullari:**
- 6. Inklyuziv ta'limda maxsus o'qituvchisi - zamonaviy o'qituvchi qiyofasida**
- 7. Inklyuziv ta'lim o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi.**
- 8. Inklyuziv ta'limda faoliyat olib boradigan maxsus o'qituvchining (tiflopedagog) faoliyati.**
- 9. Tiflopedagog o'qituvchining vazifalari:**
- 10. Maxsus o'qituvchining vazifalari:**
- 11. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun o'yinlar.**
- 12. O'quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish.**
- 13. Nima yo'qoldi o'yini haqida umumiy ma'lumot.**
- 14. Maxsus o'qituvchilar uchun ba'zi tavsiyalar:**
- 15. Maxsus o'qituvchi korreksion xonasini ta'minlanishi lozim bo'lgan jihozlar.**